



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



XORAZM VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

*2024- yil 1- avgust holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)*

*Ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi
Adliya Vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma‘lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*


So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2024- yil 1- avgust holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 26 844 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 23 561 ta).

Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar


(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2024- yil yanvar-iyul oylarida, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2024- yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yilning mos davriga nisbatan 1 721 taga ko'payganligini ko'rish mumkin.


Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2021- yilning mos davrida nisbatan yangi tashkil etilgan ma'suliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 538 taga, xususi korxonalar - 164 taga, oilaviy korxonalar - 64 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida

Urganch sh.	573	11,1%	Hazorasp t.	325	19,4%
Yangiariq t.	451	25,9%	Xiva t.	306	16,6%
Urganch t.	415	14,3%	Xonqa t.	280	13,7%
Shovot t.	408	22,3%	Yangibozor t.	253	20,0%
Bog'ot t.	365	19,4%	Xiva sh.	251	12,9%
Qo'shko'pir t.	341	15,7%	Tuproqqal'a t.	106	14,4%
Gurlan t.	332	19,8%			


2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

115,3% 117,3% 113,9% 96,8% 102,1%



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


2024- yil 1- avgust holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yilning mos davriga nisbatan 6 491 taga oshganligini quyidagi sohalarida korxonalar sonining sezilarli o'sishi bilan ifodalash mumkin: savdoda – 5 595 tadan 9 116 taga (o'sish 3 521 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 2 209 tadan 2 841 taga (o'sish 632 ta), sanoatda – 3 298 tadan 4 000 taga (o'sish 702 ta).

Hududlar kesimida


Urganch sh.	5 142	Shovot t.	1 827
Urganch t.	2 893	Yangiariq t.	1 740
Qo'shko'pir t.	2 174	Gurlan t.	1 681
Xonqa t.	2 040	Hazorasp t.	1 671
Xiva sh.	1 948	Yangibozor t.	1 267
Bog'ot t.	1 879	Tuproqqal'a t.	735
Xiva t.	1 847		

2024- yil yanvar-iyul oylarida, birlikda


Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo




Tashish va saqlash




Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib berish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida, yildan-yilga ularning investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2024- yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 4 346 ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar – 4 323 tani;
- yirik korxonalar - 23 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida



Urganch sh.	553	12,4%	Hazorasp t.	321	22,2%
Yangiariq t.	449	28,7%	Xiva t.	303	18,4%
Shovot t.	406	25,6%	Xonqa t.	278	15,3%
Urganch t.	405	15,5%	Xiva sh.	250	13,9%
Bog'ot t.	361	21,8%	Yangibozor t.	249	22,7%
Qo'shko'pir t.	337	17,4%	Tuproqqal'a t.	103	16,9%
Gurlan t.	331	22,6%			

2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

118.8% 119.6% 115.7% 96.6% 101.9%



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024- yil 1- avgust holatiga 23 692 taga yetib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 136,2 foizni tashkil etdi (6 299 ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 38,5 foiz, sanoat – 16,9 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 11,9 foiz, qurilish – 6,6 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 7,0 foiz, tashish va saqlash – 4,3 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,2 foiz, axborot va aloqa – 1,6 foiz, boshqa turlari – 11,1 foiz.

Hududlar kesimida


Urganch sh.	4 444	Shovot t.	1 589
Urganch t.	2 616	Yangiariq t.	1 562
Qo'shko'pir t.	1 942	Gurlan t.	1 464
Xonqa t.	1 819	Hazorasp t.	1 447
Xiva sh.	1 794	Yangibozor t.	1 099
Bog'ot t.	1 657	Tuproqqal'a t.	611
Xiva t.	1 648		

2024- yil yanvar- iyul oylarida, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.


2024- yil yanvar-iyul oylarida savdo sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 1 164 tadan 1 359 taga (o'sish 195 taga), sanoatda 810 tadan 1 050 taga (o'sish 240 taga), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 657 tadan 833 taga (o'sish 176 taga), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 171 tadan 264 taga (o'sish 93 taga) ko'paydi.

Hududlar kesimida


Urganch sh.	550	12,5%	Hazorasp t.	319	22,2%
Yangiariq t.	447	28,7%	Xiva t.	303	18,5%
Shovot t.	406	25,6%	Xonqa t.	274	15,1%
Urganch t.	403	15,5%	Yangibozor t.	249	22,7%
Bog'ot t.	360	21,8%	Xiva sh.	248	13,9%
Qo'shko'pir t.	331	17,1%	Tuproqqal'a t.	103	17,0%
Gurlan t.	330	22,6%			

2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Urganch shahrida (18,7 foiz), Urganch tumani (11,0 foiz), Qo'shko'pir (8,2 foiz), Xonqa (7,7 foiz) va Xiva shahri (7,6 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

Hududlar kesimida


Urganch sh.	4 396	Shovot t.	1 585
Urganch t.	2 598	Yangiariq t.	1 556
Qo'shko'pir t.	1 932	Gurlan t.	1 462
Xonqa t.	1 811	Hazorasp t.	1 440
Xiva sh.	1 790	Yangibozor t.	1 095
Bog'ot t.	1 648	Tuproqqal'a t.	606
Xiva t.	1 642		

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar

2024- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida


Gurlan t.	407
Qo‘shko‘pir t.	321
Xonqa t.	311
Urganch t.	305
Yangiariq t.	256
Xiva t.	242
Bog‘ot t.	224
Yangibozor t.	201
Shovot t.	190
Tuproqqal‘a t.	123
Hazorasp t.	100
Urganch sh.	85
Xiva sh	76



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


Baliq ovlash va akvakultura



2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda


Hududlar kesimida

Urganch sh.	663
Urganch t.	446
Qo'shko'pir t.	388
Xonqa t.	366
Shovot t.	324
Xiva t.	309
Xiva sh.	274
Yangiariq t.	243
Bog'ot t.	237
Gurlan t.	227
Hazorasp t.	225
Yangibozor t.	159
Tuproqqal'a t.	139



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So'nggi besh yil ichida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o'sish sur'ati 121,3 foizni tashkil etdi.


Sanoat korxonalari soni jami korxonalar va tashkilotlarning 14,9 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 97,6 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,1 foiz), 0,4 foizini tog-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish sur'ati 73,9 foiz), 1,5 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (o'sish sur'ati 115,7 foiz) va 0,5 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish sur'ati 220,0 foiz) tashkil etgan.



2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Urganch sh.	350
Urganch t.	196
Xiva t.	195
Xiva sh.	158
Qo'shko'pir t.	154
Xonqa t.	102
Yangiariq t.	90
Shovot t.	76
Hazorasp t.	62
Yangibozor t.	56
Gurlan t.	54
Bog'ot t.	54
Tuproqqal'a t.	28




Qurilish sohasining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 55,2 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 90,4 foizni;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 21,8 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,4 foizni;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 23,0 foiz ulushni va 84,8 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.


343

Fuqarolik
obyektlarini qurish



362

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari




870

Bino va
inshootlar qurish

2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Urganch sh.	1 665
Urganch t.	1 044
Bog'ot t.	808
Qo'shko'pir t.	691
Xiva sh.	683
Shovot t.	648
Hazorasp t.	642
Yangiariq t.	640
Xonqa t.	587
Xiva t.	575
Gurlan t.	488
Yangibozor t.	439
Tuproqqal'a t.	206



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,8 foizi yoki 9 098 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 62,8 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 97,4 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishi 23,7 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 104,0 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishi 13,5 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 123,7 foizni tashkil etdi.

1 226

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

2 164

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


5 726

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Urganch sh.	389
Xiva sh.	269
Urganch t.	172
Shovot t.	108
Xonqa t.	105
Gurlan t.	93
Yangiariq t.	88
Qo'shko'pir t.	86
Bog'ot t.	83
Xiva t.	82
Yangibozor t.	79
Hazorasp t.	67
Tuproqal'a t.	47



2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2020- yilning mos davriga nisbatan 132,3 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgo'hlari, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 13,7 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 86,3 foiz ulushini tashkil etdi.

228

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 440


Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida


Urganch sh.	120
Xiva sh.	38
Xonqa t.	32
Urganch t.	31
Yangiariq t.	31
Qo'shko'pir t.	29
Shovot t.	22
Xiva t.	21
Bog'ot t.	16
Gurlan t.	16
Yangibozor t.	13
Hazorasp t.	11
Tuproqqal'a t.	7



2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 24,0 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 114,8 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 26,4 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 80,3 foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 49,6 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 117,8 foizni tashkil etdi.



2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Urganch sh.	206
Xonqa t.	50
Xiva sh.	49
Urganch t.	45
Gurlan t.	39
Hazorasp t.	38
Shovot t.	34
Xiva t.	33
Qo'shko'pir t.	32
Yangiariq t.	25
Bog'ot t.	22
Yangibozor t.	22
Tuproqqal'a t.	10



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi, ya'ni 532 tasi yoki 87,9 foiz ulushi kichik tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

- sog'liqni saqlash yo'nalishiga 94,9 foiz korxonalar to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 101,6 foizni tashkil etdi;
- yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 2,8 foizni tashkil etib, o'sish sur'ati 73,9 foizni tashkil etdi;
- yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 2,3 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 116,7 foizni tashkil etdi.

14

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

17




574

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Urganch sh.	221
Hazorasp t.	168
Xonqa t.	115
Urganch t.	106
Bog'ot t.	68
Xiva sh.	60
Qo'shko'pir t.	58
Shovot t.	55
Xiva t.	55
Gurlan t.	41
Yangiariq t.	33
Yangibozor t.	21
Tuproqqal'a t.	16




2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,8 foizni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati 98,1 foizni;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 86,0 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishi 87,5 foizni;
- havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 66,7 foizni tashkil etdi.



**Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy
shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot**
2024- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2024- yil yanvar-iyul oylarida, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Hududlar kesimida

Urganch sh.	407	Xiva t.	230
Yangiariq t.	336	Shovot t.	204
Gurlan t.	297	Xiva sh.	195
Hazorasp t.	288	Yangibozor t.	149
Urganch t.	271	Xonqa t.	129
Qo'shko'pir t.	264	Tuproqqal'a t.	92
Bog'ot t.	245		


2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan 23 692 ta tijorat korxonasi va tashkilotlarining 14 303 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hissasiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich yashash va ovqatlanishda – 132,4 foiz, sanoatda – 110,6 foiz, savdoda – 110,0 foiz, qishloq va o'rmon xo'jaligida – 109,2 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda – 103,8 foizni tashkil etdi.


Hududlar kesimida

Urganch sh.	2 711	Xiva t.	1 010
Urganch t.	1 449	Bog'ot t.	997
Hazorasp t.	1 217	Xonqa t.	798
Qo'shko'pir t.	1 194	Shovot t.	755
Yangiariq t.	1 084	Tuproqqal'a t.	530
Gurlan t.	1 061	Yangibozor t.	452
Xiva sh.	1 045		


2024- yil yanvar-iyul oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo




Axborot va aloqa



Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.


Hududlar kesimida

Shovot t.	151	Qo'shko'pir t.	22
Xonqa t.	106	Gurlan t.	17
Urganch sh.	89	Yangiariq t.	14
Yangibozor t.	59	Xiva sh.	8
Bog'ot t.	41	Xiva t.	7
Urganch t.	35	Hazorasp t.	4


2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 2024- yil 1- avgust holatiga 4 470 tani tashkil etdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 41,7 foiz, sanoat – 17,8 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 7,0 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,8 foiz, qurilish – 6,4 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 3,9 foiz, tashish va saqlash – 2,1 foiz, axborot va aloqa – 1,6 foiz, boshqa turlari – 12,8 foiz.


Hududlar kesimida

Urganch sh.	1092	Bog'ot t.	224
Xonqa t.	543	Xiva sh.	222
Urganch t.	523	Xiva t.	200
Shovot t.	501	Yangiariq t.	93
Yangibozor t.	364	Hazoras p t.	83
Qo'shko'pir t.	300	Tuproqqal'a t.	26
Gurlan t.	299		


2024- yil yanvar-iyul oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Oilaviy korxon – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxon ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxon ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxon faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


Hududlar kesimida

Yangiariq t.	99	Xiva sh.	47
Urganch t	99	Xonqa t.	41
Bog'ot t.	72	Yangibozor t.	41
Xiva t.	66	Hazorasp t.	29
Urganch sh.	56	Gurlan t.	17
Shovot t.	51	Tuproqqal'a t.	11
Qo'shko'pir t.	51		

2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra 2020- yilning mos davriga nisbatan 1 546 taga ko'paygan.

Bu esa quyidagi sohalardagi: savdoda – 918 tadan 1 848 taga (o'sish 930 taga), sanoatda – 836 tadan 1 146 taga (o'sish 310 taga), yashash va ovqatlanishda – 662 tadan 793 taga (o'sish 131 taga) korxonalar sonining o'sishi bilan izohlanadi.


Hududlar kesimida

Urganch t.	633	Yangiariq t.	371
Urganch sh.	593	Shovot t.	317
Xiva sh.	512	Yangibozor t.	264
Xonqa t.	467	Hazoraspt.	136
Qo'shko'pir t.	429	Gurlan t.	91
Xiva t.	428	Tuproqqal'a t.	49
Bog'ot t.	422		

2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Yetakchi o'rinni 128 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyasi ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 24,2 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Xorazm viloyatiga o'z kapitalini kiritayotgan Turkiya Respublikasi (ulushi 21,1), Turkmaniston (ulushi 20,3 foiz), Xitoy (ulushi 10,2 foiz) va Qirg'iziston Respublikasi (ulushi 4,7 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida

Urganch sh.	49	Gurlan t.	6
Urganch t.	13	Yangibozor t.	5
Xonqa t.	8	Bog'ot t.	5
Xiva t.	8	Qo'shko'pir t.	5
Shovot t.	8	Yangiariq t.	5
Xiva sh.	7	Hazorasp t.	3
Tuproqqal'a t.	6		

2024- yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatining asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyasi ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 59 tasi qo'shma korxonalar, 69 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

*2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda***chet el korxonalar****qo'shma korxonalar**

27	Urganch sh.	22
3	Xiva sh.	4
2	Bog'ot t.	3
2	Gurlan t.	4
4	Qo'shko'pir t.	1
9	Urganch t.	4
2	Hazorasp t.	1
4	Tuproqqal'a t.	2
5	Xonqa t.	3
2	Xiva t.	6
5	Shovot t.	3
2	Yangiariq t.	3
2	Yangibozor t.	3

2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, chet el investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- sentabrdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2024- yil 1- avgust holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Statistik registrlarni yuritish
boʻlimi

Tel.: (62) 22-4-65-11